

ISSN : 3030-3974

# MAKON VA ZAMON

Пространство и время  
Space and time

№4  
2025

# MAKON VA ZAMON

**ilmiy-falsafiy, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-sotsiologik,  
ma'naviy-ma'rifiy jurnal**

**2025/4 (№6)**

**M u a s s i l a r:** “Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini  
mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy tadqiqot universiteti  
va O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati

Tahririyat: *t.f.d., professor, akademik O.Salimov, f.f.d., professor*  
M.Abdullayeva, *s.f.d., professor A.Muminov, f.f.d., professor O'.Abilov, p.f.d., professor*  
R.Choriyev, *p.f.d., professor Z.Ismoilova, f.f.d., professor J.Ramatov,*  
*i.f.d., dotsent X.Pirmatov, s.f.d. – A.Ravshanov.*

**ISSN 3030-3974**

**Bosh muharrir – tahririyat rahbari:**

*Qiyom Nazarov – f.f.d., professor*

**Nashrga tayyorlovchilar:**

M.Tursunova, M.Turdiyeva, Q.Kdirbayev

**Tahririyat manzili:** Qori Niyoziy ko'chasi, 39,

Toshkent shahri, 100000,

Bichimi 60x84 Ofset qog'ozi. “Times” garniturasini.

Hajmi 20 b.t. Nashriyot hisob tabog'i 30 b.t. Adadi 100 nusxa

## MUNDARIJA:

<b>Бош муҳаррир минбари</b>	Имом Бухорийнинг фалсафий қарашлари.....	4
<b>А.Маврулов</b>	Маданият феномени – Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт омили.....	7
<b>I.Axmedov</b>	Ijtimoiy-falsafiy g‘oyalar transformatsiyasini shakllantiruvchi omillar.....	11
<b>G.Ruzmatova</b>	Alisher Navoiy va Anthoni Sheftsberining go‘zallik va adolat tushunchalarining komparativistik tahlili.....	15
<b>S.Hasanova</b>	Foresight kompetentligini rivojlantirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari roli.....	20
<b>Ш.Турдимов</b>	Кўнгилдин кўнгилга дарча бор... ..	24
<b>Ҳ.Саломова</b>	Табиатни асраш – яшил иқтисодга йўналтирилган оқилона тараққиётнинг илк қадамидир.....	29
<b>К.Махсуджонов</b>	Shaxs kamolotida ma’naviy-ma’rifiy qadriyatlarning tarixiy-falsafiy asoslari.....	33
<b>D.Kamilov</b>	Sinkretizm taksanomiyasi: nazariy tahlil va metodologik yondashuvlar.....	38
<b>D.O‘rinboyev</b>	G‘arb mamlakatlarining strategemalar nazariyasiga doir falsafiy- tarixiy yondoshuvlari.....	43
<b>S.Karimov</b>	Raqamli dunyoda hayotiy maqsad paradigmalarining o‘zgarishi.....	48
<b>B.Uzokov</b>	Yangi O‘zbekiston: yangicha qadriyatlarning o‘ziga xos jihatlari.....	52
<b>Г.Нишонбоева</b>	Ўзбекистон ривожининг янги даври – маданият тараққиётининг муҳим асоси.....	56
<b>Х.Холмирзаев</b>	“Inson salohiyati” va “ong” tushunchalarining murakkabligi va o‘zaro bog‘liqligi.....	60
<b>Г.Наврўзова</b>	Экологик муаммолар ечимига оид манба.....	64
<b>Q.Kdirbayev</b>	Axborot asrida milliy qadriyatlarni himoya qilish zarurati.....	67
<b>Н.Хушвақова</b>	Социологияда блогосферага оид илмий ёндашувлар.....	71
<b>J.Taniqulov</b>	Media axborot tizimi orqali ta’lim madaniyatini yuksaltirish mexanizmlari.....	75
<b>X.Xidirov</b>	O‘rta asr G‘arb olamida korrupsiyaga qarshi kurashishning ahamiyati.....	78
<b>G.Niyetova</b>	Jadidlar ta’limotida O‘zbek oilasi funksiyalarini shakllantiruvchi ijtimoiy-iqtisodiy omillar.....	81
<b>B.Mirzayev</b>	Shayboniy Malika Mexr Sulton Xonim faoliyati xususida mulohazalar.....	84
<b>D.Kulmuradov</b>	Bo‘lajak muhandislarni o‘qitish jarayonida sun‘iy intellektdan foydalanish: xorij tajribasi.....	87
<b>S.Ismoilov</b>	Tasavvuf komil inson haqida.....	92
<b>S.Abdullayev</b>	Globalashuv sharoitida sog‘lom turmush tarzi va milliy salomatlik qadriyatlari dialektikasi.....	95
<b>M.Soatova</b>	Sun‘iy intellektning zamonaviy jamiyatga ta’siri: imkoniyatlar, xavf- xatarlar va ijtimoiy transformatsiyalar.....	99

**“INSON SALOHIYATI” VA “ONG” TUSHUNCHALARINING  
MURAKKABLIGI VA O‘ZARO BOG‘LIQLIGI**

**Xurshid Xolmirzayev**  
**Andijon davlat universiteti dotsenti**  
**Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)**

**Annotatsiya.** Maqolada inson salohiyati va ong tushunchalarining falsafiy, fenomenologik va ekzistensial tahlili berilgan. Salohiyatning shakllanishi, ongning intensional xususiyati va zamonaviy falsafadagi ko‘pqirrali yondashuvlar ilmiy asosda yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** inson salohiyati, ong, intensionallik, fenomenologiya, ekzistensializm, tajriba, mohiyat, subyekt, tafakkur.

**Аннотация.** В статье представлен философский, феноменологический и экзистенциальный анализ понятий человеческого потенциала и сознания. Освещены формирование потенциала, интенциональная природа сознания и многогранные подходы в современной философии.

**Ключевые слова:** человеческий потенциал, сознание, интенциональность, феноменология, экзистенциализм, опыт, сущность, субъект, мышление.

**Annotation.** The article provides a philosophical, phenomenological and existential analysis of the concepts of human potential and consciousness. It explores the development of potential, the intentional structure of consciousness, and multidimensional approaches in contemporary philosophy.

**Keywords:** human potential, consciousness, intentionality, phenomenology, existentialism, experience, essence, subject, thinking.

Insonning falsafiy tahlilida “salohiyat” va “ong” tushunchalari markaziy metodologik asos sifatida qaraladi. Bu tushunchalar har bir shaxsning individual rivojlanish jarayonida, ijtimoiy munosabatlarda, ma’naviy kamolotda va axloqiy o‘zini anglashda uzviy bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Shu sababli ham, inson salohiyati va ongni alohida emas, balki dialektik va fenomenologik aloqadorlikda tahlil qilish muhim nazariy vazifa sifatida namoyon bo‘ladi.

“Inson salohiyati” tushunchasi keng ma’noli kategoriya bo‘lib, shaxsda mavjud bo‘lgan, ammo har doim ham faol shaklda namoyon bo‘lmaydigan ichki imkoniyatlar majmuasini anglatadi. Bu salohiyat faqat biologik yoki fiziologik qobiliyatlar bilan cheklanmaydi, balki ma’naviy, ijtimoiy va ongli faoliyatlarni ham qamrab oladi. Ibn Sino o‘z falsafiy qarashlarida inson tabiatidagi imkoniyat va reallik holatini ajratib, salohiyatni “har qanday shaklga aylanish qobiliyati” deb baholaydi: “Salohiyat – bu voqelikka aylanish uchun muhit va vaqt ta’sirida faoliyatga o‘tadigan qobiliyatlar birligidir” [1].

Bunday yondashuv salohiyatni faqat subyektiv qobiliyat sifatida emas, balki u muayyan sharoitda ongli faoliyat orqali rivojlanadigan jarayon sifatida ham tushunishga yo‘l ochadi. Chunki har qanday salohiyat, agar u ongli ravishda anglanmasa va maqsadli faoliyatga yo‘naltirilmasa, passiv holda qolishi mumkin. Demak, salohiyatning mukammal rivojlanishi uchun ong va iroda hal qiluvchi omil bo‘lib xizmat qiladi.

Fenomenologiyada ong tushunchasi inson tajribasining markazi sifatida talqin qilinadi. Gusserlning ta’kidlashicha, ong doimo intensional xususiyatga ega, ya’ni u hech qachon o‘z-o‘zidan yuz bermaydi, balki har doim biror narsaga qaratilgan bo‘ladi. Uning ta’biri bilan aytganda: “Har qanday ong – bu bir narsaning ongi, ong o‘z mohiyati bilan hamisha mazmunga, obyektga yo‘nalgan”.

Bu nuqtayi nazardan qaralganda, inson salohiyati ham aynan ongning predmeti sifatida shakllanadi. Inson o‘z salohiyatini, qobiliyatlarini va maqsadlarini ongli tarzda anglashi va

baholashi orqali uni faollashtiradi. Ong bu yerda tashqi dunyo va ichki ehtiyojlar, instinktlar va axloqiy me'yorlar o'rtasidagi refleksiv vositachi sifatida namoyon bo'ladi.

Jan-Pol Sartr (1905–1980) fenomenologiyani mavjudlik, inson ozodligi va ongning “hech narsaligi” haqidagi ekzistensial falsafiy ta'limot bilan boyitdi. Uning falsafasida ong radikal tarzda "hech narsa" sifatida talqin etiladi. Bu yondashuv E.Gusserlning intensionallik nazariyasidan ilhomlanib, ammo yangi – mavjudlik va ma'no yaratish muammolari bilan bog'liq uslubda qayta ishlangan.

Sartrning “ong – bu hech narsa” degan ta'rifi ham aynan salohiyat tushunchasi bilan chambarchas bog'liq. Uning fikricha, ong aniq shaklga ega emas, u hamisha o'zini yaratish, tanlash va o'z salohiyatini bajarish jarayonida harakatda bo'ladi. U shunday yozadi: “Ong o'z mohiyatida hech narsaga teng, ammo aynan shu hech narsa bo'lib u dunyoni qayta yaratadi” [2].

Bu ta'rif inson salohiyatining faol, o'zgaruvchan va ongli harakat bilan bog'liq jihatlarini falsafiy jihatdan asoslab beradi. Ya'ni inson salohiyati faqat tug'ma qobiliyatlar majmuasi emas, balki ongli refleksiya, tanlov va ma'naviy o'zgarishlar orqali rivojlanadigan jarayondir.

Sartr o'zining asosiy asari *“Being and Nothingness”*da ongni real “mavjudlik” sifatida emas, balki “hech narsa” sifatida talqin qiladi. U Gusserldan farqli ravishda, ongni borliqning bir qismi sifatida emas, balki borliqni “ta'riflash, negatsiya qilish, cheklash” qobiliyatiga ega nonting (no-bo'lishlik) sifatida ko'radi: “Ong — bu mavjud emas, balki mavjudlikni o'z oldida “hech narsaga” aylantiradigan tafakkur jarayonidir. U dunyodan ayrilikda emas, balki uni yo'qqa chiqarishda yashaydi” [2.B:21]. Bu fikr Sartr falsafasida ongni o'z-o'zini anglash va rad etish qobiliyatiga ega substansiya sifatida talqin qilishga olib keladi. Insonning salohiyati esa aynan shu "o'zini rad etish", "o'zini qayta yaratish" qobiliyati bilan bog'liqdir.

Sartrda ong — bu “hech narsa”dir, chunki u o'z mohiyatida hech qanday “ichki mazmun”ga ega emas. U har doim tashqi narsalarga qaratiladi, lekin ularga singib ketmaydi, ularni tanlab, ma'noga solib va hatto “yo'qqa chiqarib” turadi. Shu sababli, ong “ishora qiluvchi” emas, “ayrimlovchi” kuchga ega. Uning asosiy funksiyalaridan biri — negatsiya (inkor) qilish qobiliyatidir: “Biz yo'qlikni olamda topmaymiz, balki uni olamga ong orqali yuklayapmiz. Yo'qlik ongning irodasidandir, uning mohiyatidan kelib chiqadi” [2.B:52]. Inson salohiyati shu ma'noda tasodifiy emas, balki doimo o'zini qayta aniqlash, o'zini qayta qurish jarayonidir. Ong “nimadir” emas, balki “nimadir bo'lishga intilish” sifatida namoyon bo'ladi.

Sartrning “hech narsalik” g'oyasi inson salohiyatini cheklamaydi, aksincha uni doimiy shakllanishdagi potensial deb ko'radi. Hech qanday “ilgaridan belgilangan mohiyat” mavjud emas: inson o'zi kimligini faol harakat, ma'no yaratish va javobgarlik orqali shakllantiradi. Shu sababli, Sartarcha falsafada inson salohiyati — bu ma'lum qobiliyatlar yig'indisi emas, balki o'zini har daqiqada yangilab, anglab, qayta ta'riflash jarayoni hisoblanadi. Buni u shunday ifoda qiladi: “Inson avval mavjud bo'ladi, keyin esa o'z mohiyatini yaratadi. U o'z tanlovlari orqali kimligini belgilaydi”.

Jan-Pol Sartrning ongni “hech narsa” sifatida talqini fenomenologik an'analarni rad etmasdan, balki ularni ekzistensial muammolar — tanlov, ma'no, mas'uliyat va salohiyat bilan bog'lash orqali boyitdi. Sartrda ong statik holat emas, balki doimiy o'zgarish, rad etish, qayta qurish va ma'no yaratish jarayonidir. Shu tariqa, inson salohiyati — bir tomondan “hech narsalik”, lekin ikkinchi tomondan — cheksiz imkoniyat va tanlov ozodligining manbayidir.

Merlo-Ponti esa ongni tana orqali namoyon bo'ladigan, jismoniy va ma'naviy dunyo birligini ifoda etuvchi hodisa sifatida talqin qiladi. Unga ko'ra, inson salohiyati to'liq ongda emas, balki ong va jismning butun harakatlarida, tajribasida o'z ifodasini topadi [3].

Shunday qilib, inson salohiyati va ong o'rtasidagi bog'liqlik bir yo'nalishli emas, balki o'zaro ta'sirchan, dialektik jarayondir. Salohiyat ongsiz rivojlanmaydi, ong esa salohiyatsiz o'z yo'nalishini topa olmaydi. Bu munosabat insonning shaxs sifatida kamol topishida, axloqiy yuksalishida va ijtimoiy faolligini anglashda muhim nazariy poydevor hisoblanadi.

Ong masalasi zamonaviy falsafaning eng dolzarb va murakkab mavzularidan biri hisoblanadi. XX va XXI asrlarda ongni tushunishga qaratilgan falsafiy yondashuvlar xilma-xil

paradigmalarda namoyon bo'ladi: fenomenologiya, germenevtika, analitik falsafa, postmodernizm, marksizm, neyrofalsafa va kognitiv fanlar shular jumlasidandir. Bu xilma-xillik ongni bir tomonlama emas, balki ko'pqirrali va integral tushuncha sifatida qabul qilish zaruratini tug'diradi.

Analitik falsafa doirasida onnga munosabat asosan til, ma'lumot va idrok masalalari orqali ko'rib chiqiladi. Gilbert Rayl "ong"ni "aql fantomi" sifatida tanqid qiladi va "Tanada yashaydigan ruhiy fantom haqidagi" nazariyaga qarshi chiqadi: "Aqlni tanadan mustaqil, ichki birlik sifatida tasavvur qilish — bu kategoriya xatosidir" [4].

Raylga ko'ra, ong insonning jismoniy harakatlari, aqliy faoliyati va tashqi dunyoga nisbatan munosabati orqali anglaniladi. Bu yondashuv bixeviorizm asosida shakllangan bo'lib, ongni inson faoliyati bilan uzviy bog'liq holda talqin qiladi.

Zamonaviy kognitiv falsafada ong "axborotni qayta ishlash tizimi" sifatida ko'riladi. Funktsionalizmga ko'ra, ongning mazmuni jismoniy asosga emas, balki funksiyaga bog'liq. Har qanday tizim (inson, kompyuter, sun'iy intellekt) ma'lum funksiyalarni bajarsa, ongli deb hisoblanishi mumkin: "Ong — bu tuzilmadan ko'ra funksiyaning natijasi. Agar mashina inson kabi axborotni qayta ishlay olsa, u ongli bo'lishi mumkin" [5]. Bu qarash sun'iy intellekt va inson ongi o'rtasidagi farqni qayta ko'rib chiqishga asos bo'ladi.

Gans-Georg Gadamerning germenevtik falsafasida ong tushunish jarayoni bilan bog'lanadi. Unga ko'ra, inson ongi — bu ta'rifiy emas, balki tushunish, sharhlash va ma'no berish jarayonida faollashadi: "Biz dunyo haqida bilim emas, balki tushunish orqali muloqotga kiramiz. Ong — bu interpretatsiya jarayonidir". Bu yondashuvda ong haqiqatni aks ettiruvchi emas, balki u haqdagi ma'nolarni yaratuvchi jarayondir.

Mishel Fuko va Jak Derrida kabi postmodern mutafakkirlar ongni mustahkam va yagona kategoriya sifatida emas, balki ma'lum bir diskursiv tizimda yaratiladigan ma'no konstruksiyasi sifatida talqin qiladilar. Fuko ta'kidlaganidek: "Inson subyekti va ongi mustaqil emas; u muayyan vaqtdagi kuchlar, ta'sirlar va diskursiv munosabatlar natijasidir". Bu qarashda ong — ideologiya, ijtimoiy me'yor va madaniyat ta'siridagi konstruksiyadir.

Marksizm ongni moddiy ishlab chiqarish va ijtimoiy munosabatlardan kelib chiqadigan tarzda talqin qiladi. Karl Marksning mashhur fikri quyidagicha: "Ong hayotni belgilamaydi, balki hayot ongni belgilaydi". Marksizmga ong ijtimoiy mavqe, sinfiy mansublik va ishlab chiqarish vositalariga bog'liq holda shakllanadi. Bu qarash inson salohiyatini ham muayyan iqtisodiy va tarixiy kontekst doirasida ko'radi.

XXI asrda ong muammosi faqat falsafiy emas, balki interdissiplinar yo'nalishlarda ham o'rganilmoqda. Neyrofalsafa ongni miya faoliyati bilan uzviy bog'laydi. Antonio Damasio va Daniel Dennett kabi mutaxassislar ongni fiziologik jarayon sifatida tushunishga intiladilar: "Ong — bu o'z tanasini va tashqi muhitni kuzatish, baholash va ularga reaksiya bildirish qobiliyati". Bu yondashuv inson salohiyatini tabiiy ilmlar bilan bog'lash imkonini yaratadi.

Zamonaviy falsafada ong tushunchasi ko'p qirrali va interdissiplinar xususiyatga ega. Uning falsafiy-ontologik, epistemologik, ijtimoiy, psixologik va biologik talqinlari bir-birini boyitadi, ba'zan ziddiyatga kiradi, ammo umumiy manzarada ongni inson salohiyatining markaziy tizimi sifatida qabul qilish imkonini beradi. Bu xilma-xil yondashuvlar insonni to'liq tushunish, uning qobiliyatlari, kamoloti va ma'naviy o'sishi masalalarida murakkab, bir vaqtda xolistik yondashuvni taqozo etadi.

Fenomenologiya XX asr falsafasining eng ta'sirli yo'nalishlaridan biri sifatida ong masalasini o'ziga xos tarzda tadqiq qildi. Bu yo'nalishning asoschisi Edmund Gusserlning ta'kidlashicha, falsafa ongni tashqi voqelikka nisbatan passiv qabul qiluvchi emas, balki faol "ma'no beradigan markaz" sifatida ko'rishi lozim. Shu nuqtayi nazardan, fenomenologiya ongni nafaqat bilish vositasi, balki ma'no yaratuvchi va dunyo tajribasini shakllantiruvchi asosiy subyekt sifatida qayta ta'riflaydi.

Gusserl ongni har doim "intensional" deb baholaydi. Intensionallik ongning ichki xususiyati bo'lib, uning har qanday akti biror obyektga, holatga yoki mazmunga yo'nalganligini

bildiradi. U shunday yozadi: “Har qanday ong – bu biror narsaning ongidir. Ongning barcha holatlari – idrok, xotira, xayol, xohish va h.k. – aniq mazmunga yo‘nalgan bo‘ladi”. Bu qarashga ko‘ra, ong vakuum holat emas, balki u hamisha o‘zining mazmuniga ega bo‘lgan refleksiv jarayondir. Ong subyektiv tajribalardan iborat bo‘lib, tashqi dunyo bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri emas, balki ma‘nolar va tasavvurlar vositasida aloqaga kiradi.

Fenomenologik yondashuvning yana bir muhim jihati — bu “epoxe” (suspension) yoki “fenomenologik reduksiya” tamoyilidir. Gusserl buni “tabiatga ishonch”dan vaqtincha voz kechish, ya‘ni obyektiv dunyo haqidagi kundalik va ilmiy qarashlarni bir chetga surib, faqat ongda qanday tajriba hosil bo‘lishini tahlil qilish zarurati, deb izohlaydi. U shunday ta‘kidlaydi: “Biz voqelik haqida emas, balki voqelik qanday tajriba sifatida ongda namoyon bo‘ladi – shu haqida so‘z yuritamiz”.

Shu bois, ong tushunchasi fenomenologiyada real voqelikdan ustun emas, balki ong tajribasida qanday tasvirlanayotgani asosida baholanadi. Bu yondashuv ongni shaxsning subyektiv salohiyati bilan bog‘liq ravishda ko‘rishga, ya‘ni insonning ichki dunyosiga chuqurroq nazar tashlashga imkon yaratadi.

Jan-Pol Sartr ham Gusserlning intensionallik g‘oyasini qabul qilgan holda ongni “hech narsa” sifatida ta‘riflaydi. Bu qarashga ko‘ra, ong tayyor shaklga ega emas, balki o‘z salohiyatini mustaqil ravishda tanlash, qaror qabul qilish va o‘zini qayta shakllantirish jarayonida yaratadi. Uning fikriga ko‘ra: “Ong – bu faol harakat, u statik emas, u doim o‘zini qayta tashkil etishga qodir. Shu sababli ong faqat mavjud narsani idrok etmaydi, balki yo‘qni ham anglash imkoniyatiga egadir” [2].

Fenomenologiyada ong tushunchasini yanada teranroq tahlil qilgan olimlardan biri Moris Merlo-Ponti bo‘lib, u ongni tana va idrok bilan uzviy aloqada ko‘radi. Unga ko‘ra, inson ongi jismoniy tajriba orqali shakllanadi; ya‘ni inson dunyo bilan tanasi orqali munosabatda bo‘ladi. U shunday yozadi: “Biz dunyoda yashamaymiz, balki uni tana orqali his qilamiz; ong – bu tana bilan idrok etilgan faollikdir” [3]. Bu yondashuv ong tushunchasini salohiyat bilan uzviy bog‘laydi. Chunki ong orqali idrok qilingan reallik, shaxsning qanday harakat qilishi va salohiyatini qanday yo‘naltirishi haqida ma‘lumot beradi.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, fenomenologiya ongni nafaqat falsafiy, balki antropologik, etik va estetik nuqtayi nazardan ham markaziy tushuncha sifatida talqin qiladi. U ongni inson salohiyatining ifodasi, amalga oshirilishi va o‘zini anglash jarayoni sifatida baholaydi. Har qanday qobiliyat, tug‘ma yoki orttirilgan bo‘lmasin, ongli refleksiyasiz faoliyatga aylanmaydi, ya‘ni potensial bo‘lib qoladi. Shu jihatdan, ong inson salohiyatini rivojlantiruvchi asosiy mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ибн Сина: материалы научной сессии Академии наук УзССР посвященной 1000-летнему юбилею Ибн Сины. (1953). Узбекистан: Изд-во Академии наук УзССР.
2. Sartre J. (1943) Being and Nothingness. New York: Philosophical Library.
3. Merleau-Ponty M. (2013) Phenomenology of Perception. London: Routledge. P.696.
4. Ryle G. (1949) The Concept of Mind. London: Hutchinson & Co.
5. Putnam H. (1975) Mind, Language and Reality. Cambridge: Cambridge University Press.